



## ILK BOLALIK DAVRIDA BOLALARDA KEHADIGAN PSIXIK XOLATLARNI O'RGANISH

**Bozorova Ro'zigul Xurramovna**

*TerDU Ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya yo'nalishi*

*2-bosqich, 222-guruh talabasi +998 99 704 96 15*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bolalarning ilk bolalik davrida kehadigan jarayonlar haqida so'z boradi. Shu bilan birga, ularning nimalarni o'zlashtira olishi hamda o'zlashtira olmasligi tog'risida ham fikr yuritiladi. Yosh davrlarda bunday holatning ahamiyati qay darajada ekanligi ham bayon etiladi. Bolalarning ijtimoiy hayot haqida ilk tasavvurlari bilan ham tanishishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy omil, egoizm, alturizm, stress, depressiya, agressevlilik, biogenetic qonun, sotsiogenetik qonun, abulya, deskeniziya, geperkeneziya, gipokeneziya, paraabulya.

**Annotatsion:** *This article talks about the processes of children during their early childhood. At the same time, attitudes are expressed about what they can and cannot master. It is also recognized how important such a situation is at a young age. You can also get acquainted with the first ideas of children about social life.*

**Key words:** *Social factor, egoism, altruism, stress, depression, aggressiveness, biogenetic law, sociogenetic law, abulia, dyskinesia, hyperkinesia, hypokenesia, parabola.*

**Аннотация:** *В этой статье рассказывается о процессах, происходящих у детей в раннем детстве. При этом выражаются установки по поводу того, что они могут и не могут освоить. Важность такой ситуации в молодом возрасте признана и признана. Также вы сможете познакомиться с первыми представлениями детей о общественной жизни.*

**Ключевые слова:** *Социальный фактор, эгоизм, альтуризм, стресс, депрессия, агрессивность, биогенетический закон, социогенетический закон, абулия, дискинезия, гиперкенезия, гипокенезия, парабула.*

Inson ontogenizida uning bir yoshdan uch yoshgacha o'sish davri alohida ahamiyatga egadir, negaki bu davrda bolada ilk insonlikka doir hislatlar ya'ni atrof olam bilan tanishish, katta kichik odamlar bilan o'zaro munosabat o'z-o'zini boshqalarga taqlid qilish orqali turli xil harakatlar, zararli va zararsiz predmetlar, atrof olamni targ'ib qilish, olamni o'rganishga qiziquvchanlik shakllana boradi. Ayniqsa, bu davrda ongi, so'z boyligi juda avj oladi hamda rivojlandi. Shuning uchun, bu davrda bolaga mehr-muhabbat yaxshi va yomonni farq qilish, foydali va zararli, xavfli va xavfsiz harakatlar haqida bolalar ongiga singdirab borishi lozim. Ilk bolalik davrida bola ongi tez rivojlanganligi sababli atrof-muhitda sodir bo'layotgan hodisalarga befarq bo'lmaydi. Har bitta tovush va hodisalarga qiziquvchanlik bilan hayratlanib kuzatadi. Atrofni kuzatar ekan mavjud har bir predmetlarni o'z ushlab ko'rmoqchi bo'ladi. Katta insonlarning bajaradigan ishlarini bajarishga harakat qiladi. Bu davrda bolalar doimiy ravishda o'zi uchun yangi ma'lumotlar to'playdi va ularni ma'lum bir



darajada tadbiiq eta boshlaydi. Ba'zi psixologlar, masalan, R.Zozzo inson tug'ilganidan to yetuklik davrigacha bo'lgan psixik rivojlanishning taxminan o'rtalari uch yoshgacha to'g'ri keladi degan g'oyani ilgari suradi. Ular atrof olam haqida boshqa yoshdagilarga qaraganda o'n hissa ko'proq ma'lumot oladilar.

Bu yerda bola tafakkuri rivojlanishdan tashqari o'z-o'zini anglash, bilish jarayonlari, o'zini boshqarish vositasi bo'lib xizmat qiladi Yuqorida aytilgani kabi bolalar har bitta predmet yoki hodisani e'tiborsiz qoldirmasdan ularga qiziqqan holda ularning qiziqarli harakatini kuzatadi va amalda bajarishga urinadi. Kattalarning har bir ko'rgan yangi notanish predmetlari haqida tushuntirishini xohlaydi va talab qila olishi ham mumkin. U kim? Bu nima? degan savollarni ko'proq beradi va ayniqsa, nima uchun degan savollar ham izidan kelaveradi. Bu davrda so'z boyligi tez orta boradi, ba'zilar kattalardek so'zlar so'zlaydi. Masalan, biror ko'rmagan narsasini bu nima? yoki ko'rmagan insonini bu kim degan savol bilan ota onasini yuzida tabassum hosil qiladi.

Shuningdek, ularga bu davrda berilgan javoblar judayam muhim sanaladi. Bola narsa va shaxsning farqiga uncha yeta olmaydi, ammo yeta boshlayotgan davri hisoblanadi. Shu sababli ham bolaning nutqi bir yarim yoshgacha sekin rivojlandi va bu paytda bola unchalik ko'p emas, atigi o'ttiz ta so'zdan yuztagacha ayta oladi xolos. bir yarim yoshdan keyin bolalarning nutq so'zlash qobiliyatlari jadal rivojlanadi. Ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalar uch yuztagacha, uch yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalar besh yuztagacha va undan keyin esa, bir yarim mingtagacha so'zlarni ishlata oladi. Bu paytda bolalar so'zlarni aniq, ravshan tafakkur etib gaplarni to'g'ri tuza oladilar. Bir yarim yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davr bolaning so'z nutq rivojlanishi uchun sube'ktiv davr hisoblanadi. Shuning uchun, tadqiqotlarning ko'rsatishicha ikki, uch yoshli bola besh, olti ta shaklni (doira, kvadrat, uchburchak, to'rtburchak), Shuningdek, ular sakkiz xil ranglarni (qizil, sariq, sarg'ish yashil, ko'k, yashil, siyohrang, oq va qora) idrok etishi mumkin ekan. Dastlab, bolalik davrida bolada tafakkur birinchi bo'lib yuzaga chiqadi.

Buni yuqoridagi natijalar orqali ham bilib olishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari asosan ko'rgazmali tafakkur hisoblanib, u atrof olamdagi turli bo'shliqlarni, bog'liqlarni o'rganishga tayyor bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar kattalar so'zini diqqat bilan eshitishi orqali atrofni taniy boshlaydilar.

Ota-onasi aytgan gaplarga, ertaklarga va qo'shiqlar xirgoyi qilganida tez yodlab, anglab tasavvur qila oladigan darajaga yetgan bo'lishadi. Biron so'z o'rgatishsa tez yodlash osonroq kechadi. Bir gap yoki hikoya aytganingizda tez unutilishi mumkin, biroq tez esiga ham tushadi. Bu bolalarda diqqat ko'chishi tez-tez sodir bo'ladi. Xuddi shu davrda, bolalar ota-onasi yashagan joyga tez moslasha oladilar, biroq ota-onasiz bu joyga moslashish jarayoni qiyin kechadi. Bolalarda bu davrda o'zlarining shaxsiy narsalarini juda yaxshi ko'rishi kuchli bo'ladi. Begonalardan, hatto, opa - ukalaridan o'zlari yoqtirgan narsani qizg'anishi juda kuchli bo'ladi.

Shu bilan birga, ushbu davrda buvi - buvalari va oila a'zolariga nisbatan turli muhabbat paydo bo'ladi. Faqat o'z yaqinlariga alohida mehr beradi. O'zlarini oilasi bag'ridagina erkin his qila oladilar. Bolalarning bu davrida yig'lashi ham oson yupanishi ham oson kechadi. Bolalar ota-onasi oldida bo'lishini nazorat qilish lozim, chunki ular juda ham o'yinqaroq bola hisoblanadi. Bolalar ota - onalari oldida bo'lishni xohlashadi. Ular biror



joydan kelsa juda xursand bo'lib ketishadi. Bola ota-onasi yonida bo'lsa hech narsadan qo'rqmaydilar va o'zlarini erkin tuta oladilar. O'zini erkin tutib barcha qobiliyatlarini ko'rsata oladilar muhimi o'ziga ishonchi ortadi. Shu tariqa bolalarda erkinlik darajasi ham rivojlanib boradi, Shuningdek, mehr-muhabbat tuyg'usi ham rivojlanib boradi. Ota-onasi bilan bo'lar ekan, mustaqil hayotga harakat qila boshlaydi. Biror ish qilsa men ham qilaman, biror joyga bormoqchi bo'lsa men ham boraman, ovqatlansa men ham yeyman, suvni o'zim qo'yib ichaman, menga buni ber, bu kerakmas, kiyimimni o'zim kiyaman kabi savollarni - javoblarni berishadi. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, bolalarning "men"i shakllana boshlaydi. Bu davrda bolalar o'zlarini kattalarga taqqoslashadi, shuning uchun, bu paytda bolalar ko'proq ota-onasining ko'z oldida bo'lmog'i lozim.

Ota-onasidan to'g'ri tarbiya olmog'i, sog'lom turmush tarbiyaga rioya qilmog'i lozim. Bolaning har taraflama sog'lom, baquvvat bo'lishi uchun ota-onalarimiz bolalarga kerakli darajada osoyishta muhit va shart-sharoitlarni yaratib berishlari shart. Shunday bolalargina el - yurt koriga yaraydigan, ham jismonan, ham ma'nan, ham ruhan sog'lom bo'lib rivojlanadilar. Bolalarga shu davrdan boshlab katta e'tibor berilmog'i lozim. chunki bu davrda ular olgan tarbiya butun umrga xizmat qilishi mumkin. Chunki, uch yoshgacha bola tarbiyaga muhtoj hisoblanadi. Qadimda bir kishi olti yoshli farzandini tarbiyalab berishi uchun olim yoniga olib borganida, olim u kishiga sen farzandingni tarbiyalashga olti yilga kechikding degan ekanlar. Chunki, olti yoshgacha bolada bir umrlik tarbiya shakllanishi mumkin. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deganlaridek, bolalarimizni iloji boricha ilk bolalik davridayoq to'g'ri yo'lga boshlashimiz kerak. Ularning ongi va tafakkurini sog'lom muhitda oilasi yonida, mehr-muhabbat, tinchlik osoyishtalik, totuvlik, sadoqat doirasida rivojlantirsak, ularning hayoti ham xuddi shu tarzda kechadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, bolalarimizni ilk davridan har tomonlama sog'lom qilib o'stirish vatanimiz kelajagining ishonchli qo'llarda deb yuz foiz ayta olishimizga asos bo'la oladi. Zero, Abdulla Qodiriy aytganlaridek, "tarbiya yo hayot, yo halokat masalasi" hisoblanadi. Shunday ekan, inson rivojlanishida, avvalo, tarbiyaning o'rni beqiyos. Xuddi shuningdek, bolalarda vatanga bo'lgan muhabbat, sadoqat, burch kabi yuksak tuyg'ularni shakllantirish har bir insonning oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi, albatta. Bolalarning qobiliyatlari ham, avvalo, oilada shakllanadi, rivojlanadi. Ularning qiziqishlariga ham alohida e'tibor berish lozim, chunki ular qobiliyatlarini qiziqish ko'rinishida namoyon etadilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. X.Sharafiddinova – Umumiy psixologiya Toshkent 2022
2. E.E.G'oziyev – Umumiy psixologiya Toshkent 2002
3. Fazliddin Ikroruddin – Nikoh va oila risolasi Toshkent 2004
4. The role of parental Psychology in the Formatation of a Religions Beliefs in a child. Sh.Xudoyqulova, M.Saydaliyeva – Eurasion Scientific Herald - 2023



5. Muhiddinova D & Saydaliyeva M. (2023). Religious Beliefs as a Faktor of personal psychological and PsychologicalHealth. International Bulletin of engreening and technology.
6. Abdurauf Fitrat – Oila, Toshkent 2000.